

## ILK SAK VA MASSAGET QABILALARIDA HARBIY ISH.

**Kenjayev Bektash Davronbek o'g'li**

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

E-mail: [bektoshkenjaev341@gmail.com](mailto:bektoshkenjaev341@gmail.com)

Tel: +998(99)-751-08-22

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qadimgi yunon tarixchilari, xususan, Gerodot, Strabon va Arrian asarlarida tilga olingan O'rta Osiyo xalqlarining harbiy hayoti va urf-odatlarini yoritilgan. Unda sak, massaget, xorazmiy, sug'd, parikan va boshqa qabilalarning hayot tarzi, harbiy strategiyalari hamda jangovar qurollari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Qadimgi yunon tarixchilari sak-massagetlarning yuqori darajadagi harbiy mahorati, otliq qo'shinlarining harakatchanligi va ularning jang taktikalari haqida qimmatli tarixiy dalillarni keltiradilar. Shuningdek, maqolada qadimgi O'rta Osiyo qabilalarining Ahmoniyalar Eroni tarkibidagi harbiy xizmatlari va mashhur Massagetlar malikasi To'marisning Kayxusrav qo'shinlari ustidan qozongan g'alabasi haqida ham so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** qurollar, otliqlar, baqtriyaliklar, Ahmoniyalar, To'maris, Kayxusrav, O'rta osiyo, oybolta, xanjar, nayza, kamon.

**Аннотация:** В статье рассматриваются военный быт и обычаи народов Средней Азии, упомянутые в трудах древнегреческих историков, в частности Геродота, Страбона и Арриана. В нем содержатся подробные сведения об образе жизни, военной стратегии и вооружении саков, массагетов, хорезмийцев, согдийцев, париканцев и других племен. Древнегреческие историки приводят ценные исторические свидетельства о высоком уровне военного мастерства скифов, мобильности их конницы и тактике ведения боя. В статье также рассматриваются военные службы древних среднеазиатских племен в составе Ахеменидского Ирана и победа знаменитой массагетской царицы Томарис над войсками Кайхусрова

**Ключевые слова:** оружие, конница, бактрийцы, ахемениды, томариды, кайхусравы, Средняя Азия, лунный топор, кинжал, копье, лук.

**Abstract:** This article covers the military life and customs of the peoples of Central Asia, mentioned in the works of ancient Greek historians, in particular, Herodotus, Strabo and Arrian. It provides detailed information about the lifestyle, military strategies and combat weapons of the Sakas, Massagets, Khorezmians, Sogdians, Paricans and other tribes. Ancient Greek historians provide valuable historical evidence of the high level of military skill of the Sakas-Massagets, the mobility of their cavalry and their combat tactics. The article also discusses the military services of the ancient Central Asian tribes in Achaemenid Iran and the victory of the famous Massaget queen Tomaris over the troops of Kaykhusraw.

**Key words:** weapons, cavalry, Bactrians, Achaemenids, Tomaris, Kaykhusrav, Central Asia, moon axe, dagger, spear, bow.

### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).**

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida oʻrta Osiyo xalqlari siyosiy hayoti haqida maʼlumotlar uchraydi. Bu xalqlar tarixini yozish, Gomer, Esxil, Aristey kabi adiblar tomonidan boshlangan, lekin skif(sak va massaget)lar haqida keng va ancha aniq maʼlumotlarni birinchi boʻlib Mil. avv. V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Gerodot oʻzining “Tarix” asari (I, III, VII, IX jildlari) da, sak (skit), massaget, xorasmiy, margush, sugʻd, parikan kabi oʻrta Osiyoda qadimda yashagan oʻtroq va koʻchmanchi xalqlar, Kir II va Toʻmaris oʻrtasidagi munosabatlar, massagetlarning xoʻjaligi, turmush tarzi, urf-odat va marosimlari haqidagi maʼlumotlari qimmatlidir. Muarrixning yozicha, “Massagetlar skiflar singari kiyinadilar. Turmush tarzlari bir-xil. Ular otda va piyoda jang qiladilar. Oʻq-yoy, bolta va nayzalar bilan qurollanadilar. Ularning barcha buyum va asboblari oltin va misdan ishlangan. Strabonning taʼkidlashicha, sak qabilalarida erkaklarning asosiy mashgʻuloti harbiy ish boʻlgan. Bu barcha xususiyatlari va qatlami bilan professional yollanma qoʻshinga mos kelgan. Ular har qanday vaqtda yaqin atrofdagi shahar va qishloqlarni talash yoki tovon olish uchun bosqinlar uyushtirishga tayyor boʻlgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/ LITERATURE ANALYSIS).**

Oʻrta Osiyo hududida yashagan koʻchmanchi chorvador sak qabilalari haqida ilk yozma maʼlumotlar qadimgi manbalarda uchraydi. Jumladan, ushbu qabilalar haqida qadimgi fors bitiklari – Behistun yozuvlari, Persepol va Naqshi Rostam qoyatoshlaridagi yozuvlarda, shuningdek, Doro I haykalida (mil. avv. VI–V asrlar) maʼlumotlar uchraydi. Bundan tashqari, qadimgi tarixchilar Gerodot, Strabon,

Polien, Pompey Trog, Pliniy Katta kabi mualliflar o‘z asarlarida sak-massagetlarning hayoti, urf-odatlar va harbiy yurishlari haqida yozib qoldirganlar. Sak-massagetlar tarixi XIX asr oxiridan boshlab G‘arb va rus tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganila boshlangan. Xususan, V. Tomsen, K. Nemet, P. Pelliot, S. Tolstov, M. Dyakonov, I. Markvart, G. Alheim, H. Trever, V.V. Bartold, A.N. Bernshtam, M. Gryaznov kabi olimlar ushbu qabilalarning etnogenezi, madaniyati va siyosiy hayotini tadqiq qilganlar. Shuningdek, sak-massaget qabilalarining moddiy madaniyati va arxeologik yodgorliklari haqida olimlar A. Kifishin, G. Patsevich, K. Akishev, A. Mandelshtam, L. Gumilyov, V. Yagodin, O. Ismagilov, J. Usmanov, E. Ageeva, B. Andrianov kabi tadqiqotchilarning ishlarida muhim ma’lumotlar berilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyo dashtlarida yashagan ko‘chmanchi chorvadorlarning turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va harbiy an’analar haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar to‘plangan.

#### **MUHOQAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS).**

Urug'-qabilalarda harbiy sohaning ahamiyati ortib borishi bilan harbiy yo‘lboshchining nufuzi ham oshib bordi. Ana shunday tarzda harbiy kasb vujudga keldi. Ilk bor ibtidoiy mudofaa to‘siqlari urug‘-jamoat qishloqlari atrofida paydo bolib, ular keyinchalik mustahkamlangan qo‘rg‘on-qal’a vazifasini bajargan. Sak-skiflarda o‘smirlar bolalik davridanoq harbiy ishni o‘rganib, murakkab sinovlardan so‘ng haqiqiy jangchi sifatida tan olinganlar. Ular erkak jangchilar qatoriga qo‘shilish uchun bir necha sinovlardan o‘tganlar. Har bir o‘smirda go‘dakligidan sabr-toqat, chidam, iroda shakllantirilgan.[1]

Gerodotning «Tarix» asarida massagetlar skiflar kabi kiyinib, ularga o‘xshab hayot kechiradilar. Ular otda va piyoda safda ham jang qiladilar. Ularda, odatda, kamon, nayza va jangovar cho‘qmorlar bor. Lekin nayzalar, kamon o‘qlari va jangovar cho‘qmorlarning metall qismlarini misdan yasaydilar, bosh kiyimlari, kamar va belbog‘lari tilla bilan bezaydilar. Gerodotning «Tarix» asaridan.[2]

Arrian uchun massagetlar Amudaryoning chap sohilida istiqomat qiluvchi nochor qabila jamoalari edi. Sug‘d bilan g‘arbiy chegaradosh edi. Daxlar esa, aksincha, Sug‘diyoning shimoliy sharqiy qo‘shnisi, Tanais (Sirdaryo) vodiysining aholisi edi. Arrian dahlarni sovutlarga o‘ralgan jangovar suvoriy jangchilar, Doro harbiy yurishlarining saralangan otliq askarlari sifatida ta’riflaydi.[4] Demak, massagetlar chorvador Saklarning kambag‘al qatlamini tashkil etadi. Daxlar



ularning badavlat kashami — oriylari edi. Gerodotning yozishicha, Saklar askarlarining boshlarida qalin kigizdan tikilgan, cho‘qqi qalpoklari bo‘lgan. Ular sak o‘q-yoylari, kalta qilichlar (akinaklar), oyboltalar (sagariylar) bilan qurollanganlar. Saklar o‘zlarining harbiy mahoratlari, asosan, o‘q-yoy otishga ustaliklari bilan dong chiqarganlar. Qadimiy dunyo muarrixlari Saklarni dunyodagi eng mohir merganlar deb ta’riflashgan. Miloddan avvalgi 238-yilda dah qabilalaridan biri parnlar Parfiya davlatini tuzgan. Arxeolog K. Akishev MarkaziyQozog‘istonda o‘rgangan "Tasmo‘la madaniyati" sak qabila ittifoqiga kiruvchi issedonlarga tegishli ekanligini yozadi.[3]

Yevroosiyo dashtlari ko'chmanchilarida bo'lgani kabi, katta migratsiya davrigacha bo'lgan odatiy Saka Rauka qo'shini, asosiy qurol va kalta qilich sifatida tipik ko'chmanchi o'ralgan kamon bilan qurollangan juda harakatchan ot kamonchilardan iborat bo'lar edi. Akinak tipidagi yoki sagaris jangovar bolta ikkilamchi yaqin jangovar qurol sifatida va juda kam zirh bilan jihozlangan. Oddiy ko'chmanchi armiyaning "to'g'ri" ishlashi va harakatchanligi va taktikasidan strategik va taktik darajada maksimal darajada foydalanishi uchun armiya har bir askarga kamida ikkita ot kerak bo'ladi.[5] Bu odatda cho'l ko'chmanchilari uchun muammo emas edi, chunki ularning butun ekologik va iqtisodiy strategiyasi asosan qoramol, qo'y va eng muhimi, otlarni boqish va bir yaylovdan boshqasiga mavsumiy migratsiyaga asoslangan edi. Ular chorvadorlar edi. Darhaqiqat, Xan Shuda Vusunlar boshqargan mintaqada juda ko'p otlar borligi va ba'zida davlat kishilarning 4000-5000 otlari borligi aniq qayd etilgan. Ko'pchilik qabila a'zolari bugungi kunda Prjevalskiy nomi bilan mashhur bo'lgan otlari bo'lar edi, u bir vaqtlar Evrosiyo dashtlarida keng tarqalgan, ammo hozir yo'qolib ketish xavfi ostida turgan tur hisoblanadi. Boyroq qabilalar yirikroq va kuchliroq otlarga minishgan bo'lardi, buzot, ehtimol, mintaqaga xos bo'lgan va Xan imperatori Vudi (miloddan avvalgi 140-86 yillar hukmronligi) "a'lozot" deb atagan. Aslida, Xan Vudi keyinroq Farg'onadan kelgan ajoyib "qon terli otlar"ni "samoviyotlar" deb atashgan qaror qilgunga qadar bu atama dastlab usun otlari uchun ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik usun otlari "g'arbiy ekstremalotlar" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. "Samoviy otlar" nomini olish sharafi keyinchalik farg'ona otlariga o'tgan. Bu Yettisuv hududidagi otlarning yaxshi sifatiga guvohlik berishi mumkin va shuning uchun biz bemalol taxmin qilishimiz mumkinki, bu hududda Da Yuechzi va Usunlardan oldin hukmronlik qilgan va ularning ko'plab qabilalari keyinchalik Da Yuechzi va

xudolarga qo'shilgan Saka Rauka hokimiyati. Usunlar bunday sifatli otlarga ega edi.[6]

Sak-massagetlarning o'ziga xos jang taktikasi bo'lgan. Yengil qurollangan otliqlar qo'qqisdan paydobo'lib, dushmanga o'q yog'dirganlar va kutilmaganda tezlik bilan birdaniga chekinganlar. O'zini boshqara olmay qolgan dushman kuchlari natijada jang maydonidan uzoqlashgan ta'qib etuvchi dushman kuchlari birdan o'rab olinib, yanchib tashlangan yoki pistirmaga tushirilgan. Yana bir jang taktikasiga ko'ra dushman kuchlariga doimo kichik-kichik hujumlar qilingan. Dushman kuchlari o'z tayanch nuqtasidan uzoqlashgan. Oxir-oqibatda dushman doimiy hujumlar, suvsizlik va ochlik, doimiy izg'ib yurishdan holdan toyib orqaga qaytgan. Bu holdan toydirish taktikasi edi.[7]

Otliq ko'chmanchilarning yana bir o'ziga xos jang taktikasi bo'lgan. Jang odatda uzoq pistirmalarning harakati dushmanni aylanib o'tish atayin chekinish va kutilmagan hujumga olish bilan boshlangan. Jang g'alaba bilan yakunlansa dushman to'la yanchib tashlangan yoki to'zitib yuborilgan. Agar jangda g'alabaga erishib bo'lmaganda ham to'la yengilmaguncha yoki jang o'z foydasiga hal bo'lmaguncha jang davom ettirilgan.[5]

Sak-skif armiyasi otliq va piyoda armiyadan tashkil topgan bo'lib, otliq jangchi quyidagicha qurollangan: jangchi boshida cho'qqi qalpoq (charm keyinchalik temirdan) bolib, u uzun soqol qo'ygan, ustiga esa misdan ishlangan sovut, pastgi qismiga charm ishton, oyog'iga esa ishlov berilgan teridan ishlangan oyoq kiyim kiygan. Otliq jangchi jangda kamon va qilichdan unumli foydalangan. Piyoda jangchilar qo'lida kamon, yelkasiga kamon o'qlari to'ldirilgan sadoq (o'qdon), belida xanjar bilan kamar bo'lgan. Shuningdek, otliq qilich bilan ham yaxshi jang qila olgan. Piyoda kamonchilar qismi jang boshlanganda dushman ustiga o'q yog'dirgan. Ba'zida otliqlar ham piyodalar bilan birgalikda dushmanni kamondan o'qqa tutgan. Shundan so'ng otliq qismlar jangga kirganlar. Sak-Skif jangchisining aqinak (xanjar)lari ishlanishiga ko'ra biroz kichik, ammo jang uchun qulay bo'lgan. Bu aqinaklar sopi va qo'ndog'I bejirim qilib bezatilgan. Katta harbiy mansabdagilarning yoki hukmdor xanjariga mis va oltindan ishlov berilgan. Bundan tashqari harbiylar kamon va nayza bilan ham qurollangan. Kamonni yasashda uning yengil va ixcham bo'lishiga katta ahamiyat berilgan. Nayza va kamon o'qining uchlari metallardan ishlangan. Qurolsozlik juda yuqori darajada rivojlangan. Qurolsoz ustalar kamon, qilich, xanjar, jangboltasi, sovut, dubilg'a, qalqonlar yasagan.

Otlaring egar-jabduqlarini yasash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Otning ko'kragini himoya qiladigan himoya vositasi ishlangan.[8]

Sak-massagetlar va baqtriyaliklarning jangovar qobiliyati qo'shni davlat, xalqlar tomonidan yuqori baholangan. Qudratli Ahmoniyalar Eroni armiyasida sak-massagetlar, baqtriyaliklar imtiyozli otlar qismlar sifatida janglarda qatnashganlar. Mill. avv. VI - IV asrda sak-massagetlar, baqtriyaliklar Ahmoniyalar davlatining qaram hududlaridan biri Misr va chegara hududlardagi garnizonlarda harbiy xizmatni o'taganlar.

Mil. avv. 529-yilda Kayxusrav armiyasi O'rta Osiyoga bostirib kiradilar. Massagetlar davlati hukmdori malika To'maris dushman bilan jang qilishda an'anaviy taktikadan foydalanadi. To'maris o'z armiyasiga chekinishni, dushmanni mamlakat ichkarisiga ko'proq kirishiga imkon berishga buyruq beradi. Forslar massagatlarni ta'qib qilib, jadal mamlakat ichiga yo'naldilar. Malika To'maris belgilangan joyda forslar bilan jangga kirishadi. Tarixchi Yustin malumotlariga ko'ra jangda 200 ming fors askari qirib tashlanadi. Kayxusrav ham oldiriladi. [3]

#### **Xulosa (Conclusion).**

Maqoladan ko'rinib turibdiki, qadimgi O'rta Osiyo xalqlari nafaqat dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, balki o'ziga xos jang taktikalari va harbiy madaniyatga ega bo'lgan. Ularning jangovar san'ati otlar qo'shinlarning tezkorligi va mohir kamanchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jihat ko'chmanchi xalqlarning harbiy ustunligini ta'minlagan. Massaget va saklarning harbiy qurollari va strategiyalari nafaqat o'z hududlarini himoya qilish, balki bosqinchilarga qarshi samarali kurash olib borishda ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, malika To'maris boshchiligidagi massagatlarning fors podshohi Kayxusrav ustidan qozongan g'alabasi ularning harbiy salohiyatining yorqin namunasidir. Ushbu tarixiy ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlarining jasoratini va o'z hududlarini himoya qilishdagi qat'iyatini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абаев В.И. Среднеазиатский политический термин «афшин» ВДИ. – М., 1959. – №2. – С. 112-116.
2. Геродот. IV, 116.
3. Геродот. IV, 26.
4. Жданко Т.А. Каракалпакская эпическая поэма «Кырк кыз» как историко-этнографический источник //КСИЭ. – М., 1958. Вып. XXX.

5. Косвен М.О. К вопросу о военной демократии // Тр. Института этнографии. – М., 1960. Т. 4. – С. 241-261.
6. Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе, 1975. – 191 с.
7. Смирнов К.Ф. Кочевники Северного Прикаспия и Южного Приуралья скифского времени // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 74-75.
8. Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV в. до н.э. – М.: АН СССР, 1956. –С. 349.



Research Science and  
Innovation House

